



**TIBBIY TA‘LIM TALABALARINI KLINIK JARAYONLARGA
TAYYORLASHNING DIDAKTIK AHAMIYATI.**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.005>

Ismailov Oybek Abdurasulovich

Andijon davlat tibbiyot instituti

*Anesteziologiya reanimatologiya va tez tibbiy yordam
kafedrasi assistenti*

yettiylulduuz@gmail.com

+998991200107

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy ta‘lim talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Talabalarda klinik fikrlash, diagnostik tahlil, amaliy ko‘nikmalar hamda kasbiy mas‘uliyatni shakllantirishda kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish, simulyatsion mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar va klinik amaliyotga integratsiyalashgan ta‘lim texnologiyalarining o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta‘lim, klinik jarayonlar, didaktik ahamiyat, klinik fikrlash, diagnostik ko‘nikma, simulyatsion ta‘lim, amaliy mashg‘ulotlar, klinik kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar.

Annotation. This article analyzes the didactic significance of preparing medical students for clinical processes from a scientific and pedagogical perspective. The role of competency-based education, simulation training, problem-based situations, and practice-integrated educational technologies in developing students’ clinical thinking, diagnostic analysis, practical skills, and professional responsibility is substantiated.

Keywords: medical education, clinical processes, didactic significance, clinical thinking, diagnostic skills, simulation-based learning, practical training, clinical competence, professional readiness, pedagogical technologies.

Аннотация. В данной статье с научно-педагогических позиций проанализировано дидактическое значение подготовки студентов медицинского образования к клиническим процессам. Обоснована роль компетентностно-ориентированного обучения, симуляционных занятий, проблемных ситуаций и образовательных технологий, интегрированных с клинической практикой, в формировании у студентов клинического

мышления, диагностического анализа, практических навыков и профессиональной ответственности.

Ключевые слова: медицинское образование, клинические процессы, дидактическое значение, клиническое мышление, диагностические навыки, симуляционное обучение, практические занятия, клиническая компетентность, профессиональная подготовка, педагогические технологии.

Kirish. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishi, tibbiy texnologiyalarning takomillashuvi hamda klinik faoliyatning murakkablashuvi bo‘lajak shifokorlarni tayyorlash jarayoniga yangicha pedagogik yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy shifokor nafaqat chuqur nazariy bilimga, balki real klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tezkor diagnostika olib borish va amaliy muolajalarni xavfsiz bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu sababli tibbiy ta‘limda talabalarni klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik asoslarini qayta ko‘rib chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tibbiy ta‘limda talabani klinik jarayonlarga tayyorlash masalasi didaktikaning markaziy muammolaridan biri bo‘lib, u “bilimni o‘zlashtirish” (knowledge acquisition) bilan “kasbiy faoliyatni xavfsiz bajarish” (safe performance) o‘rtasidagi uzviy, ammo ko‘pincha uzilib qoladigan bog‘liqlikni tiklashga qaratilgan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabaning nazariy tayyorgarligi yetarli bo‘lsa-da, real klinik muhitda bemor bilan ishlash, vaqt cheklovi, jamoaviy qaror qabul qilish, xavf-xatarni oldindan ko‘rish va xatolarni bartaraf etish kabi omillar fonida kutilgan natija doimo ham yuzaga chiqmaydi. Ayniqsa anesteziologiya va reanimatologiya kabi yuqori xavfli klinik yo‘nalishlarda didaktik vazifa yanada murakkablashadi: talaba nafaqat “nima qilishni bilishi”, balki “qachon, qanday sharoitda, qaysi chegaralarda va qanday nazorat ostida qilishni” o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi. Shu sababli klinik jarayonlarga tayyorlash didaktik jihatdan bilimni tizimlashtirishdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, u ta‘lim natijalarini bemor xavfsizligi, klinik mas‘uliyat va nazorat (supervision) bilan birlashtiradigan metodologik platformaga aylanadi¹.

Shu bilan bir qatorda, talabalarni klinik jarayonlarga tayyorlashda ularning nazariy bilimlarini real amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash, mustaqil klinik fikrlashni shakllantirish, xavfsiz amaliy harakatlarni bajarish malakasini rivojlantirish hamda kasbiy mas‘uliyatni bosqichma-bosqich oshirib borish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy tibbiyot sharoitida talabaning klinik vaziyatlarni tezkor baholash, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash, jamoa bilan samarali hamkorlik qilish va o‘z vakolati chegarasini anglash

¹ McGaghie W.C., Issenberg S.B., Petrusa E.R., Scalese R.J. A critical review of simulation-based medical education research: 2003–2009 // Medical Education. – 2010. – 44(1). – P. 50–63.

qobiliyatlarini shakllantirish klinik ta‘limning muhim didaktik vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Rivojlanishning hozirgi sifat jarayonida tibbiy ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri Davolash ishi yo‘nalishi talabalarini klinik faoliyatga tayyorlashning mazmuni va mexanizmlarini zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan uyg‘unlashtirishdan iboratdir. Tibbiyot va biologiya fanlaridagi tezkor taraqqiyot, yangi diagnostik va davolash texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi shifokordan murakkab klinik vaziyatlarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda bemor xavfsizligini ustuvor qo‘ygan holda ishlash kompetensiyasini talab etmoqda. Shu sababli tibbiy ta‘lim jarayonida klinik tayyorgarlikni ta‘minlash faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, real klinik faoliyatga moslashuvni ta‘minlovchi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur sifat jarayonida ta‘lim natijalarini baholashga bo‘lgan yondashuv ham tubdan o‘zgarib bormoqda. An‘anaviy yakuniy imtihonlar va test nazorati talabaning klinik vazifalarni bajarishga tayyorlik darajasini to‘liq aks ettira olmasligi sababli, bevosita klinik muhitda kuzatuvga asoslangan baholash, reflektiv tahlil va amaliy faoliyat natijalarini hisobga oluvchi monitoring mexanizmlariga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa klinik ta‘limda baholashni o‘qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida qarash, talabaning rivojlanish trayektoriyasini doimiy nazorat qilish va takomillashtirib borish imkonini beradi.

Shu bilan birga, rivojlanishning hozirgi sifat jarayonida Davolash ishi yo‘nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashda kasbiy mas‘uliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabaning klinik faoliyatga jalb etilishi aniq vazifalar, belgilangan xavfsizlik chegaralari va nazorat darajalari asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lib, bu yondashuv bemor xavfsizligini ta‘minlash bilan bir qatorda talabaning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada tibbiy ta‘lim jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, bitiruvchilarning real klinik faoliyatga tayyorligi tizimli va ilmiy asoslangan holda ta‘minlanadi².

Klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyatini belgilovchi birinchi omil bemor xavfsizligi paradigmasidir. Xalqaro miqyosda tibbiy ta‘limda patient safety bo‘yicha ta‘limni bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish zarurligi alohida ta‘kidlanadi: xavf-xatarlarni tanish, xatolarni oldini olish, samarali kommunikatsiya va jamoaviy ish kabi mavzular talabaning klinik faoliyatiga erta davrdan singdirilishi lozim. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tibbiy maktablar uchun patient safety o‘quv qo‘llanmasida klinik ta‘limda didaktik yondashuv faqat ma‘ruza bilan cheklanib qolmasligi, holatli vaziyatlar (case-based), muhokama, amaliy

² Lomis K., Amiel J.M., Ryan M.S., Esposito K., Green M., Stagnaro-Green A. Implementing entrustable professional activities in undergraduate medical education: early lessons // Academic Medicine. – 2020. – 95(9). – P. 1325-1332.

mashg‘ulot va reflektiv tahlil kabi usullar orqali xavfsizlik ko‘nikmalari shakllantirilishi kerakligi ko‘rsatiladi. Bu manba klinik jarayonlarga tayyorlash didaktikasini “xatoga chidamli tizim” (error-aware learning environment) sifatida ko‘rishga undaydi: talaba klinik vazifani bajarayotganda xavfsizlik cheklovlarini bilishi, o‘z vakolati chegarasini anglash va zarur paytda yordam so‘rash kompetensiyasini egallashi shart³.

Ikkinchi omil ta‘lim natijalarini amaliy faoliyat bilan bevosita bog‘lashdir. Zamonaviy tibbiy ta‘lim standartlarida (xususan, WFME global standartlarida) o‘quv dasturi, baholash va ta‘lim natijalari uyg‘unligi, klinik muhitga mos ta‘lim metodlari va baholashning ishonchliligi muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Didaktik nuqtai nazardan bu talab “ta‘lim natijalari faqat deklarativ bilim ko‘rinishida emas, balki kuzatiladigan klinik faoliyat natijasi” ko‘rinishida ifodalanishi kerakligini anglatadi. Demak, klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati o‘quv maqsadlarini “mavzu”dan “faoliyat”ga ko‘chirishda namoyon bo‘ladi: talaba bemorni baholash, kuzatuv natijalarini tahlil qilish, monitoring ma‘lumotini talqin etish, xavfli belgilarni erta aniqlash, algoritm asosida shoshilinch choralarni boshlash kabi real ish birliklari orqali o‘rganadi⁴.

Uchinchi omil nazorat va mas‘uliyatni bosqichma-bosqich oshirishning didaktik mantiqidir. Klinika ta‘limida “progressive responsibility” tamoyili shuni talab qiladiki, talabani (yoki keyingi bosqichda rezidentning) klinik mas‘uliyati tajriba va baholash natijalariga ko‘ra oshib boradi, bu esa bemor xavfsizligini saqlagan holda mustaqillikka olib chiqadi. ACGME hujjatlarida nazorat darajalari (direct/indirect) va bemor xavfsizligini ta‘minlash maqsadida supervision standartlarini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan; bu yondashuv klinik jarayonlarga tayyorlash didaktikasida “kim nima ishni qaysi darajada bajaradi” degan savolni markazga olib chiqadi. Demak, didaktik jihatdan klinik tayyorgarlik “bir martalik amaliyot” emas, balki nazorat darajasi o‘zgarib boradigan, mas‘uliyat doirasi kengayadigan, dalillarga asoslangan o‘quv trajektoriyasidir⁵.

To‘rtinchi omil klinik tayyorgarlikni baholashning yangi didaktik arxitekturasini bilan bog‘liq. Klinika sharoitida faqat test yoki yakuniy imtihon talabani real vazifani bajarish qobiliyatini to‘liq ochib bera olmaydi; shuning uchun ish joyida baholash (workplace-based assessment) vositalari, kuzatuvga asoslangan dalillar, portfel va tezkor feedback klinik didaktikaning ajralmas qismiga aylanadi. Bu jarayonda baholash “o‘qitishdan keyingi nazorat”

³ Kozlov I.A. Anesteziologiya: sovremennye podkhody k obucheniyu. – Moskva: Meditsina, 2017. – 264 p.

⁴ Moll-Khosrawi P., Ganzhorn A., Zöllner C., Schulte-Uentrop L., Küllmei J., Moll-Khosrawi P. Development and validation of a postgraduate anaesthesiology core curriculum based on entrustable professional activities: a Delphi study // GMS Journal for Medical Education. – 2020. – 37(5). – P. 52.

⁵ Royal College of Physicians and Surgeons of Canada. Competence by Design: Anesthesiology EPAs and Assessment Plan. – Ottawa: RCPSC, 2017. – 208 p.

emas, balki “o‘qitishning o‘zi” (assessment for learning) sifatida ishlaydi: talaba har bir vazifa bo‘yicha nimani to‘g‘ri qilgani, nimani tuzatishi kerakligini bilib boradi va reflektiv ravishda o‘z rivojlanish rejasini quradi. Bunday yondashuv klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyatini kuchaytiradi, chunki u o‘quv jarayonini uzluksiz monitoring va takomillashtirish sikliga aylantiradi⁶.

Beshinchi omil EPA texnologiyasi bilan bevosita bog‘lanadi. EPA (Entrustable Professional Activities) didaktik jihatdan klinik tayyorgarlikni “kompetensiyalar ro‘yxati” darajasidan “kasbiy vazifa birligi” darajasiga olib chiqadi. EPAning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, u professional amaliyotdagi aniq vazifani (unit of professional practice) belgilaydi va talaba bu vazifani yetarli darajada ko‘rsatganidan so‘ng, uni ma‘lum nazorat darajasida bajarishga ishonch bildiriladi. Didaktik nuqtai nazardan bu juda muhim burilishdir: (1) o‘qitish mazmuni vazifaga bog‘lanadi; (2) vazifa bo‘yicha xavfsizlik cheklovlari va sharoitlari aniq yoziladi; (3) baholash mezonlari dalillarga tayanadi; (4) natija “ishonch darajasi” (entrustment) orqali ifodalanadi. Natijada klinik jarayonlarga tayyorlash “qanchalik biladi” degan mavhum mezondan “qaysi vazifani qaysi sharoitda bajara oladi” degan didaktik aniqlikka o‘tadi.

Anesteziologiya va reanimatologiya faniga kelganda, klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati yana bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan kuchayadi. Bu yo‘nalishda klinik vazifalar ko‘pincha vaqt cheklovi ostida, tez o‘zgaruvchan fiziologik holat sharoitida bajariladi; monitoring ma‘lumotlari uzluksiz talqin etiladi; jamoaviy ish (operatsion blok, intensiv terapiya bo‘limi) va aniq kommunikatsiya (buyruqlar, closed-loop) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli didaktik model oddiy “mavzu o‘qitish”dan ko‘ra, algoritmik fikrlash, shoshilinch vaziyatlarni tanish, xavfsizlik protokollari, standart operatsion tartiblar va reflektiv debriefingni birlashtirishi lozim. WHO patient safety yondashuvi ham aynan shuni ko‘rsatadi: xavfsizlikni o‘rganish faqat nazariya emas, balki vaziyatli mashg‘ulotlar va muhokama bilan mustahkamlanishi kerak.

Shunday qilib, tibbiy ta‘lim talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashning didaktik ahamiyati uch darajada namoyon bo‘ladi: birinchidan, ta‘limning maqsad-mazmunini bemor xavfsizligi bilan uyg‘unlashtiradi; ikkinchidan, o‘qitish natijasini real klinik faoliyat birliklari orqali aniqlashtiradi; uchinchidan, baholash, feedback va refleksiya asosida bosqichma-bosqich mustaqillikka olib chiqadigan nazoratli o‘quv trajektoriyasini yaratadi. Mazkur dissertatsiya doirasida aynan shu didaktik mantiq EPA texnologiyasi asosida anesteziologiya va reanimatologiya fanini o‘qitish jarayoniga moslashtirilib, “klinik vazifa – nazorat darajasi – baholash dalillari – patient safety” zanjiri bo‘yicha ilmiy-metodik yechimlar bilan boyitiladi.

⁶ Ten Cate O., Chen H.C., Hoff R.G., Peters H., Bok H., Van der Schaaf M. Curriculum development for the workplace using entrustable professional activities: AMEE Guide No. 99 // Medical Teacher. – 2015. – 37(11). – P. 983–1002.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atenafu E.G., Hauer K.E., ten Cate O. Entrustable professional activities and competency-based medical education: a review of concepts and implementation // *Medical Teacher*. 2015. – Vol. 37(11). – P. 983–989.
2. Cook D.A., Hatala R., Brydges R. et al. Technology-enhanced simulation for health professions education: systematic review and meta-analysis // *JAMA*. 2021. – Vol. 306(9). – P. 978–988.
3. Frank J.R., Snell L.S., Cate O.T. et al. Competency-based medical education: theory to practice // *Medical Teacher*. 2010. – Vol. 32(8). – P. 638–645.
4. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today // *Medical Teacher*. 2017. – Vol. 29(7). – P. 625–629.
5. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R. et al. Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review // *Medical Teacher*. 2015. – Vol. 27(1). – P. 10–28.
6. Kogan J.R., Holmboe E.S., Hauer K.E. Tools for direct observation and assessment of clinical skills of medical trainees // *JAMA*. 2019. – Vol. 302(12). – P. 1316–1326.
7. McGaghie W.C., Issenberg S.B., Cohen E.R. et al. Does simulation-based medical education with deliberate practice yield better results than traditional clinical education? // *Academic Medicine*. 2021. – Vol. 86(6). – P. 706–711.
8. Miller G.E. The assessment of clinical skills/competence/performance // *Academic Medicine*. 1990. – Vol. 65(9). – P. 63–67.
9. Ten Cate O. Nuts and bolts of entrustable professional activities // *Journal of Graduate Medical Education*. 2023. – Vol. 5(1). – P. 157–158.